



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC

SOLUTIONS

ISLOMDA AYOLLAR HURMATI

Amonullayeva Nodirabegim Bexzodovna*SamDCHTI Kechki fakulteti**2-bosqich 2324-guruh talabasi*

Annotatsiya. Ayrim erkaklar hozirda ayollar huquqlarini oyoqosti qilishmoqda. Bu esa ayollarga qilingan shafqatsizlikdir. Ushbu maqolada Islomda hamda jamiyatimizda ayollarning o'rni, huquqlari va imkoniyatlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: ayol, jamiyat, Islom, erkak, ayol, oila, huquq, johiliya.

Ayollar olamni go'zal, mehrli va adolatli qilish uchun yaratilgan bir hilqat hisoblanadi. Ular olamning asosiy ildizi, manbaidir. Ayollar olam yaratilganidan beri hurmatlanadi, e'zozlanadi.

Ko'plab xalqlar Islom dinida ayollarga hurmatsizlik qilinadi, ularni huquqlari poymol qilinadi deb o'ylashadi. Bunga asosiy sabab esa Islom dinidagi ayollarning hijob o'rashlari, ayollarning turli xil ishlarda ishlamasligi va boshqalar. Ammo ularning fikrlari xatodir. Islom dinida ayollar boshqa xalqlardagi ayollandan ham ko'ra ko'proq hurmat qilinadi. Islom dinida ayollarning hurmati balandligini isbotlash uchun Islomgacha hamda Islomdan keying davrlarda ayollar huquqlari haqida gapslahsak.

Johiliya davrida Arabiston yarimorolida ayollar huquqlari deyarli bo'lмаган. Ularga xuddi bir quldek muamalada bo'lіshgan. Hattoki shunday voqeа-hodisalar sodir bo'lganki, agar oilada qiz farzand tug'ilsa uni tiriklayin ko'mishgan. Bu juda ayanchli holat hisoblanadi. Ammo o'sha davrda hamma ham bunday isg qilmagan. O'sha davrda ham ayrim Ibrohim payg'ambar dinida bo'lганlar bu jirkanch, razil ishdan yiroq bo'lіshgan. Ammo budlarga sig'inuvchi, ularni iloh deb biluvchi insonlar bunday ishlarni qilishdan uyalishmagan. Bu ular uchun odatiy holat bo'lган. Biroq Islom dini kirib kelganidan so'ng bu ishlar harom qilingan. O'zi aslida avvaldan harom bo'lган. Ammo Islom dini kirib kelgach, Islo diniga kirgan odamlar bu ishlari uchun Allohdan panoh so'rashgan va bu ishlarni qilmaslikni va'da berishgan.

Islom dini hayotda ayol sha'nini ulug'laydi. Ayol deganda ko'z oldimizda onalarimiz, turmush o'rtog'larimiz, opa-singillarimiz va qizlarimiz ko'z o'ngimizga keladi. Qur'oni karimda ayollar haqida alohida "Niso"(Ayollar) surasi kelgan. Aziz va mukarram bo'lgan inson zoti yer yuzida o'zidan ko'payib va o'ziga berilgan vazifani ado etishi uchun Xaq taolo O'zining insonga o'z jinsidan hayot yo'ldoshi, qalbi sururi va muhabbati timsoli qilib juftini yaratdi. Alloh taolo Niso surasida shunday xabar beradi: **"Ey, odamlar! Sizlarni bir jon (Odam)dan yaratgan va undan jufti (Havvo)ni yaratgan hamda ikkisidan ko'p erkak va ayollarni taratgan Rabbingizdan qo'rqingiz!** Shuningdek, o'rtalariningzidagi o'zaro muomalada nomi keltiriluvchi Allohdan va



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

qarindoshlar (aloqasini uzish)dan qo‘rqingiz! Albatta, Alloh sizlarni kuzatib turuvchidir". [1]

Alloh taolo ushbu surani o’zining payg’ambari Muhammad (s.a.v) ga Jabroil a.s orqali yetkazganidan va payg’ambarimiz uni o’z sahobalariga aytganlaridan keyin barcha sahobalar yig’lay boshlashdi. Ular johiliya davrida qilgan gunohlari uchun, begunoh go’daklarni tiriklayin ko’mganliklari uchun yig’lashar edi. Zero, eng to’g’risini Alloh taolo bilar.

Rivoyat qilishlaricha johiliya davrida hattoki Umar ibn Xattob r.a ham o’z qizlarini ko’mgan ekanlar. Ammo bu haqida tarixiy dalillar mavjud emas. Bazilar Umar r.a Islomgacha ham, undan keyin ham qattiqqo’l, jasoratli kishi bo’lganliklari sababli bunday rivoyatlar tarqalgan. Eng tog’risini Alloh taolo bilguvchidir. [2]

Islom dinida ayollar ulug’lanishining, hurmat qilinishining yana bir yaqqol dalili bu Islomga birinchi kirgan va Rasullulloh s.a.v ga shahodat kalimasini aytgan inson ham Hadicha r.a bo’ladilar. Hadicha r.a payg’ambarimizning birinchi umr yo’ldoshlari hisoblanadilar va umrlarining oxirigacha payg’ambarimizni oldilarida bo’lganlar. Islomdagagi ilk shahid ham ayol kishi hisoblanadi. U kishi Sumayya bintu Xabbat, Ammar ibn Yosirning onasi, Islomga birinchilardan bo’lib kirish baxtiga erishgan ayol hisoblanadilar. Bundan tashqari Islom dinini qabul qilgan va dunyoda mashhurlikka erishgan ko’plab shaxslar mavjud. Ular:

6. Qur’onning, ya’ni Mushafning ilk saqlovchilaridan biri ayol kishi – hazrati Umarning qizlari Hafsa roziyallohu anho edilar. Musulmonlarning muqaddas Kitobini saqlash vazifasi ayol kishiga topshirilganligi o’zida juda ko’p narsani ifoda etadi. [3]

7. Payg’ambarimizning qizlari Fotima r.a. U kishi payg’ambarimiz Muhammad s.a.v farzandlari orasida eng uzoq umr ko’rgan farzandi hisoblanadilar. Fotima r.a Islomdagagi buyuk 4 sahobalardan biri Ali r.a umr yo’ldoshi hamda Hasan va Husan r.a larning onasidir. Payg’ambarimiz nasllari ham aynan Fotima r.a dan ko’paygan.

Islomda har bir erkakning o’z ayoli ustidan qanday haq-huquqlari bo’lsa, ayollarning ham erlari ustidan xuddi shunday huquqlari bor. Erkakning ham, ayolning ham o’z turmush o’rtog’I oldida majburiyatlar mavjud. Bu ham Islomda ayollarning huquqlari erkaklardan kam emasligining namunasidir.

Qiz farzand tarbiyasi borasida ko’plab hadislar vorid bo’lgan. Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: " Bir kuni mening xuzurimga ikkita kizini yetaklab bir ayol tilanchilik qilib keldi. Mening xuzurimda bitta xurmodan boshka narsa yo’k edi. Men xurmoni bersam, ayol uni ikkiga ajratdida, ikki qiziga berdi Rosululloh sollallohu alayihu vasallam kirganlarida bu haqda xabar bersam u zot: Kim mana shu kabi qiz farzand bilan imtihon qilinsa, qizlarni chiroyli parvarish etsa, uning uchun jahannamdan parda bo’ladi" dedilar. [4]

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, Islom hech qachon ayollarni huquqlarini oyoq osti qilmagan va qilmaydi ham. Islomda ayollar har doim ulkan hurmat, martabaga ega bo’lib kelishgan. Bizlar ham o’z ayollarimizga, qizlarimizga, onalarimizga yaxshi muomalada

**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS**

bo'laylik. Ularni hurmatlarini joyiga qo'yaylik. Zero, shu sabab Alloh taolo gunohlarimizni kechirib bizni o'zining go'zal jannatiga kirgizsa. Ushbu maqola har bir mutolaa qilayotgan odamga manfaatli bo'lishiga umid qilaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [Muslim.uz](#)
2. Ahmad Lutfiy Qozonchi. Saodat asri qisslari. Toshkent 2024
3. [Aniq.uz](#)
4. [Sammuslim.uz](#)

